

# СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Узбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддиқова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шиукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масбул котиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Узбекистан)

**Якуб Умар оглы**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джураев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Куренов Рахыммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Балтабоев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Дустмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Сиддиқова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

**Шиукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Узбекистан)

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarchodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammedov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna</b> TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
<b>2. Yusupova Soxiba Islombek qizi</b> O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
<b>3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna</b> GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
<b>4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat</b> HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
<b>5. Намазова Манзура Ураковна</b> ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
<b>6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna</b> AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
<b>7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich</b> THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
<b>8. Karimova Dilorom Shavkatovna</b> VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
<b>9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna</b> CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
<b>10. Шахзод Турниязов</b> ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
<b>11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna</b> XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
<b>12. Алена Ялмагиевна Иванова</b> ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
<b>13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna</b> EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
<b>14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li</b> O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
<b>15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi</b> PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
<b>16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи</b> НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
<b>17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич</b> И.ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
<b>18. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
<b>19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna</b> O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
<b>20. Malika Soliyeva</b> INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
<b>21. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122


<b>22. Xurinsa Xudoyberdiyeva</b> TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
<b>23. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
<b>24. Israilova Sayera Tashpulat qizi</b> INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
<b>25. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
<b>26. Робиға Мамбетова</b> ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
<b>27. Ҳамидулла Годжиев</b> ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
<b>28. Ergashova Rano Turaevna</b> LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
<b>29. Bobir Maxammadov</b> MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
<b>30. Xalimova Firuza Rustamovna</b> POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
<b>31. Комила Мамадиёрова</b> ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
<b>32. Матлуба Шукурова</b> ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
<b>33. Tashkulova Zarnigor</b> “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195



**Xalimova Firuza Rustamovna**

Samarqand davlat chet tillar instituti  
professori v.b., filologiya fanlari doktori (DSc),  
e-mail: firuzahalimova@mail.ru

## POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087451>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada poetik matndagi badiiy konseptlar va metaforalarning kognitiv va estetik talqini tahlil qilinadi. Matnda ifodalangan tushunchalar orqali inson tafakkuri va his-tuygʻulari qanday aks etishi koʻrib chiqiladi. Shuningdek, metaforalarning til va madaniyat doirasidagi roli, ularning estetik va kognitiv funksiyalari oʻrganiladi.

**Tayanch soʻzlar:** poetik matn, badiiy konseptlar, metafora, kognitiv talqin, estetik talqin, tilshunoslik.

**Халимова Фирюза Рустамовна**

и.о. профессор Самаркандского государственного  
института иностранных языков, доктор филологических наук,  
e-mail: firuzahalimova@mail.ru

## КОГНИТИВНО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ КОНЦЕПТОВ И МЕТАФОР В ПОЭТИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируется когнитивно-эстетическая интерпретация художественных концептов и метафор в поэтическом тексте. Рассматривается отражение человеческого мышления и эмоций через представленные в тексте понятия. Также изучается роль метафор в языке и культуре, их эстетические и когнитивные функции.

**Ключевые слова:** поэтический текст, художественные концепты, метафора, когнитивная интерпретация, эстетическая интерпретация, лингвистика.

**Halimova Firuza Rustamovna**

Associate Professor of the Samarkand state institute of foreign languages, Doctor of  
Philological Sciences, e-mail: firuzahalimova@mail.ru

## COGNITIVE AND AESTHETIC INTERPRETATION OF ARTISTIC CONCEPTS AND METAPHORS IN POETIC TEXT

### ABSTRACT

This article analyzes the cognitive and aesthetic interpretation of artistic concepts and metaphors in poetic texts. It explores how human cognition and emotions are reflected through the

concepts expressed in the text. Additionally, the role of metaphors in language and culture, along with their aesthetic and cognitive functions, is examined.

**Keywords:** poetic text, artistic concepts, metaphor, cognitive interpretation, aesthetic interpretation, linguistics.

Poetik matnning konseptual maydonida navbatdagi qatlam sifatida badiiy konseptlar o‘ziga xos o‘rin egallaydi, bunda tasvir mustaqil so‘z orqali ifodalanadi. Ushbu elementlar predmet konseptlari deb nomlanadi.

Falakka boq – yangi chiqqan oy  
Egilib, so‘ng ko‘tarar yukni,  
Sekin-sekin ochilar chiroy,  
Oydan o‘rgan kamtarinlikni!  
O‘n besh kunlik ziyosi uchun  
Moh o‘n besh kun qarolik ko‘rgan,  
Sinovlarga bardosh berib jim,  
Sabrni ham qamardan o‘rgan.

[X. Hamidov, “Oy” she‘ridan]

“Oy”ning tubida badiiy olamda kamtarinlik, sabr-bardosh, xokisorlik kabi tasavvurlar mavjud. Ushbu she‘rda “oy” (qamar, moh) badiiy konseptning markaziy elementi, ya‘ni yadroviy so‘zi hisoblanadi. Lisoniy ifoda shakllari muallif tanlagan tuzilmalar asosida va konseptning obrazli komponentida hosil bo‘ladi. Badiiy konseptning obrazli va assosiativ tarkibiy qismlari ham she‘riy tasvirni ifodalash uchun bir qator transformasion modellarni o‘z ichiga oladi.

Menda bor ishq ichra g‘am,  
Hajr ichra dard ul oyda yo‘q,  
Dardni dard bilmas kishiga  
So‘zlamoqdan foyda yo‘q.

[E. Vohidov “Menda bor ishq ichra g‘am...”]

Ushbu she‘riy parchada “oy” obrazi orqali ayol timsoli ko‘rsatilgan.

Matndagi predmetli konsept lisoniy metafora, metonimiya, ramz va boshqa badiiy ifoda vositalari orqali ifodalanadi.

O‘xshatish – bu olamni idrok etish jarayonidagi muhim kognitiv-amaliy bosqichlardan biri bo‘lib, uning ifodasini biz personifikatsiya va reifikatsiya jarayonlarida ko‘rishimiz mumkin. Personifikatsiya atamasi kishiga xos bo‘lgan belgi, harakat va xususiyatlarning jonli bo‘lmagan predmetlarga ko‘chirilishini anglatadi [Hojiev, 2002: 130]; boshqacha aytganda, bu jonlantirish orqali qiyoslash metodidir [Mirtojdiyev, 1973: 36]. Masalan, imoratlarning qad ko‘targani, xatning kelgani, shamolning shivirlagani haqidagi ifodalar personifikatsiya natijasidir. Shu bilan birga, personifikatsiya olamni idrok etishda asosiy rol o‘ynab, dastlabki metaforalarning paydo bo‘lishiga ham zamin yaratganligini tan olish zarur [Usmanov, 2020: 13].

Reifikatsiya (inglizcha: reification – predmetlashtirish) esa ideal hodisani moddiy mavjudlik shaklida tasavvur qilish, mavhum tushuncha va g‘oyalarni predmetlarga aylantirish jarayonidir [<https://sociologicheskaya.academic.ru/1005>]. Masalan, “shirin hid”, “shirin tashvish”, “qaynok xabar”, “fikr olmoq”, “g‘oya bermoq” kabi iboralar inson ongidagi reifikatsiya jarayonlari natijasidir, ular olamni idrok etishni yengillashtiradi va hissiy idrok qilinmagan mohiyatlarni anglash imkonini yaratadi [Микешина, 2020: 236]. Masalan, I. Mirzo “Muhabbat” she‘rida muhabbat insonning yorqin nigohi, halovat va havosiga qiyoslanadi:

Muhabbat – bu yalt etgan nigoh,  
Va halovat abas degani.  
Muhabbat – o‘zingni sevmoq,  
Va o‘zgaga havas degani.

Ushbu she‘rda muhabbat tushunchasining shaxsga nisbatan yorqin nigoh, halovat va havas kabi tasvirlar orqali ifodalanishi reifikatsiya jarayonini ko‘rsatadi. Shunday qilib, personifikatsiya va

reifikatsiya insonning kognitiv faoliyatining natijalari bo'lib, ularning asosi inson tafakkuridagi qiyoslash va o'xshatish mexanizmlaridir.

She'riyatda predmetli badiiy konseptlarni ifodalashda lisoniy metaforalar milliy xususiyatga ega bo'lmaydi. Misol:

The sweet smell of it Wednesday nights,  
the night before auction,  
when the misery of cows greets me  
heading home through town.  
Lake quiets, tired of my lies.  
When will I tell truths again?  
The siren. My love is home.  
Nights, we stay in and X the days.

[Deborah Ager "Summer Nights"]

Mothers are a special gift sent  
from God above,  
They bless us with their nurturing,  
And fill us with their love.

[F.D. Kilday "Mothers are a Special Gift"]

Poetik metaforalarni yaratish jarayoni – bu muqobil qarorlar qabul qilish jarayonidir. Bundan tashqari, muallif avvalo o'zi uchun ushbu kontekstda ma'lum bo'lgan metaforalarga mos keladigan muqobillarni "qidiradi". Ya'ni, yaratilgan metaforik modellari ong faoliyatini boshqaradi: muallif va o'quvchining fikr jarayonlarini, olamning xususiyatlari va belgilari hamda she'riy obrazning o'ziga xos jihatlarini aniqlaydi. Shu orqali ijodiy ong ma'no izlashga yo'naltiriladi va she'riy voqelikni shakllantirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Qiyoslashning asosiy ko'rsatkichini o'rnatish mexanizmi nafaqat leksik, balki grammatik xususiyatga ham ega:

O'tgan kunlarimga kelar suq, havasim,  
U – mening quyoshday yoshligim.  
O'tgan tunlarimga kelar suq, havasim,  
U – oydin shodlik, beboshligim.

[Zulfiyaxonim "Suq"]

Seni sog'inaman,  
mening kiprigim –  
Qamishdek qovjirab sinmoqda tinmay,  
Endi unga parvo qilmaydi hech kim,  
Endi undan hech kim yo'nolmaydi nay...  
(Agar nay bo'lganda seni kuylardi).

[I. Mirzo "Seni sog'inaman"]

Qiyoslashda –day, –dek qo'shimlari, misoli, xuddi, naq, kabi, bamisli, go'yo, singari, o'xshash so'zlarining ishlatilishi uni metaforik o'xshatishdan ajratadi.

Xulosa qilib aytganda, falsafiy nuqtai nazardan, qiyos, ayniqsa uning verbal shakllari – o'xshatish va uning rivojlangan varianti bo'lgan metafora olamni anglashda gnoseologik va kognitiv vazifani bajaradi. Ushbu jarayonlarni lingvomadaniy jihatdan o'rganish esa o'xshatishlarning milliy-madaniy semantikasini ochib beradi, shu bilan birga ularning aksiga mos keluvchi milliy aksiologik nuqtai nazarni, o'ziga xos dunyoqarashning lingvistik tasvirini tushunish imkonini yaratadi.

Poetik metaforalar turli xil konseptosferalardagi predmetli konseptlarning o'zaro ta'siri orqali hosil bo'ladi:

Faxr etarman ona xalqim,  
Ko'kragimni tog' qilib,  
Ko'kragida tog' ko'targan,  
Tanti dehqon, o'zbekim.

[E. Vohidov "O'zbekim"]

Nafs emish hokim jahonda, nafs uchun  
Aqlidin begona bo'lg'on muncha ko'p.

[J. Kamol "Muncha ko'p..."]

Metaforik va metonimik ko'chirishlar hamda ramziylashtirish jarayonlari leksik xarakterga ega bo'lib, asosan konseptlarni konkretlashtirish tamoyiliga asoslanadi va ob'yektlarning ayrim xususiyatlarini tasvirlashga xizmat qiladi:

Keksalik boshlanib, tanni bemorlik  
Zabtiga oldi-yu, xoru zor qildi.  
Bir zamon yurardim, davlatlik, norlik,  
Ko'zimga dunyoni endi tor qildi.  
Shogirdlar o'stirdim joylab jonimga,  
Mahramdek sanadim xonadonimga.  
Oqibat o'shalar hatto yonimga,  
Kelib o'tirishdan go'yo or qildi.

[A. Oripov "Imon"]

Ushbu she'riy parchada "tanni zabtiga oldi", "dunyoni tor qildi", "joylab jonimga" metaforalari, "xonadonim", "davlatlik", "norlik" metonimlari, "mahram" ramzi orqali sog'ligidan, davlatidan, yaqinlari mehridan judo bo'lgan obrazni tasvirlashga, "Tashlandiq inson" konseptini konkretlashtirishga ko'maklashgan.

Metafora – obrazli tafakkur mahsulidir va lisoniy hodisa bo'lishiga qaramay, uning estetik vazifasi asosan poetik nutqda to'liq namoyon bo'ladi. Metafora oddiygina narsa yoki hodisani ifodalash bilan cheklanmay, uni boshqa narsa yoki hodisaga qiyoslab tasvirlaydi va ongimizda muayyan jonli tasavvur – obraz yaratadi. Ushbu obraz ayniqsa poetik nutqda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda badiiy adabiyotda metafora ma'nosi sezilarli darajada kengaygan: u nafaqat o'xshashlik asosidagi ko'chma ma'noda ishlatilgan bitta so'z, balki matnning bir qismi (misra, band, jumla yoki abzas) shaklida ifodalanuvchi obraz hamda ba'zida butun bir asarni to'liq ifodalovchi metafora sifatida qaraladi.

Metafora – lirik subyekt kayfiyatini ifodalash va emotsional tonallikni belgilashdagi tengsiz vositadir. Buni A. Oripovning quyidagi she'ri misolida ko'rsatish mumkin:

Osmon ufqlarga separ kul rangin,  
Bulutlar chopadi, xorg'in be ega.  
Havo nega muncha ma'yus,  
Havo nega muncha g'amgin:  
Oh, men sendan ajraldim nega!...

Ushbu she'r g'amgin, elegik ruh bilan uyg'unlashgan bo'lib, bu kayfiyatning dastlabki misralarda ifodalanishi o'quvchini she'rni qabul qilishda emotsional jihatdan tayyorlaydi. She'rda aks etgan kayfiyat asosini yo'qotish iztirobi, azob-ruhi tashkil qiladi. Agar o'tmishda ayollarning azada boshlaridan kul sochish urfi mavjud bo'lganligi eslansa, "osmon ufqlarga separ kul rangin" metaforasining ildizlari namoyon bo'ladi. Demak, birinchi satrni o'qigandayoq azob ruhini his qilishimiz bejiz emas; osmonning ufqlarga kul rangini sochishi bilan o'rtadagi analogiyalar bunga asos bo'ladi. To'g'ri, o'quvchi bu tafsilotni bilmasligi mumkin, ammo anglanmagan holda ham o'sha ruhni his qilaveradi. Zotan, inson ongida suyakka singib, asrlardan o'tib kelayotgan tarixiy xotira yashaydi va bu, anglangan yoki anglanmaganligidan qat'i nazar, uning tafakkur tarziga ta'sir ko'rsatadi.

A. Oripov she'rlari tahlili orqali metaforaning fikrni original va ta'sirli ifodalash, matnlararo aloqa asosida an'ana va yangilik munosabatini yuzaga keltirish, shuningdek she'rga milliy ruh bag'ishlash va mazmuni uyushtiruvchi markaz bo'lish kabi funksiyalarini ko'rish mumkin. Bu esa metaforaning badiiy tafakkurning asosiy mexanizmi ekanligini, she'riyat asosida o'xshashlik tamoyili yotishini hamda uning adabiyotda katta ahamiyatga ega ekanligini namoyish etadi.

The tender flower that lifts its head elate;  
Helpless must fall before the blasts of Fate:

Sunk on the earth defaced its lovely form.  
Unless your shelter ward the impending storm  
[Robert Burns “The Rights of Women”]

“The tender flower” – “nozikkina gul” metaforaning yorqin namunasi bo‘lib, u obraz yaratishda xizmat qilgan. “Tender” – “nozik”, “mayin”, “helpless” – “ojiz”, sifatlarining satrlar boshida kelishi ayollik belgisini ko‘rsatmoqda. Kontekst asosida qiz haqida gap ketganini anglashimiz mumkin. “The blasts of Fate” – “taqdir bo‘ronlari” metaforik birikmasi asosida bo‘ron, kuchli shamol yosh qizning taqdiri kabi, gul uchun halokatli, xavfli ekanligi namoyon etmoqda.

Metaforaga har doim funksional nuqtai nazardan yondashish lozim. Bir tomondan, u shoirning qalbidagi his-tuyg‘ularni ifodalashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, o‘quvchiga she‘rni his qilishda qanchalik yordam berayotganiga e‘tibor qaratish muhimdir. Chunki metafora ijodiy faoliyat mahsuli sifatida, xuddi badiiy asar yoki obraz kabi, ijodkor va o‘quvchini birdek nazarda tutishni talab etadi. Shunday ekan, metaforaning she‘riyatdagi o‘rni va ahamiyatini tushunish uchun uning she‘riy matnda bajarayotgan vazifalarini diqqat bilan kuzatish zarur.

Tilning antropotsentrik nuqtai nazaridan tadqiqotlar natijasida metafora va metonimiyaning konseptual darajada o‘rganilishi boshlangan. J. Lakoff va M. Jonson metaforani oddiy stilistik vosita emas, balki inson tafakkurining asosiy qismi sifatida ko‘rgan. Ularning fikricha, metaforalar til va tafakkur tizimining bir qismi bo‘lib, kundalik hayot va madaniyatga chuqur ta‘sir qiladi [Lakoff, Johnson 2003: 84]. Shunday ekan, konseptual metaforalar oddiy ma‘no ko‘chishi emas, balki murakkab kognitiv jarayon natijasidir.

Olib borilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, konseptual metafora yangi nom yasashning samarali usuli hisoblanadi. Masalan, J. Kamolning “Yonayotgan dala” she‘rida ishlatilgan “it” leksemasi hayvon emas, balki qasoskor, dushman obrazini ifodalaydi:

Dunyo deganlari ey g‘ofil banda,  
Yuvosh bir it desa, ishonma zinhor,  
Avval tovoningni yalab gazanda,  
Keyin oyog‘ingdan olmog‘i ham bor.

[J. Kamol “Yonayotgan dala”]

Muallif buni oddiy til birligi sifatida emas, balki insonning konseptual tizimidagi it haqidagi asosiy bilimlar asosida yaratgan. Bu bilimlar yoshligimizdan ertak va rivoyatlar orqali shakllangan bo‘lib, itning yovvoyi, hasadgo‘y, g‘azablangan inson xarakteri sifatida tasvirlanishiga asoslanadi. Imom G‘azzoliy “Ihyom qalb” kitobida itni g‘azab ramzi sifatida ta‘riflaydi. Inson tabiatida to‘rt unsur – yirtqichlik, hayvoniylik, shaytoniylik va robboniylik mavjud bo‘lib, agar g‘azab hukmron bo‘lsa, dushmanlik, yomon ko‘rish, urish va so‘kish kabi illatlar yuzaga keladi [Xasanova, 2021: 1098].

Anglashiladiki, metafora olamni idrok etishning o‘ziga xos vositasi, tilda yangi ma‘noni yuzaga keltiruvchi kognitiv mexanizmdir. Demak, metafora nafaqat til hodisasi, balki tafakkur hodisasi hamdir. A.G. Yuldashevning fikriga ko‘ra, tafakkurning o‘zi metaforikdir, u qiyoslash orqali sodir bo‘ladi va aynan shu nuqtada tilda metafora hosil bo‘ladi hamda nafaqat ifoda vositasi, balki tafakkurning asosiy qurolidir [Yuldashev, 2019: 59].

Poetik matnda badiiy konseptlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular inson tafakkurining obrazli, emotsional va estetik qirralarini ochib beruvchi asosiy vositalardan biridir. Bunday konseptlar, xususan, “oy”, “muhabbat”, “yosh”, “keksalik” kabi predmetlar orqali tildagi metafora, metonimiya, ramz, personifikatsiya va reifikatsiya kabi badiiy ifoda vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Bu esa poetik matnning semantik maydonini boyitib, o‘quvchining idrokini chuqurlashtiradi va milliy-madaniy qadriyatlarni anglashga xizmat qiladi.

Metafora esa poetik tafakkurning markaziy elementi sifatida nafaqat tilning badiiy-estetik qudratini oshiradi, balki shoirning ichki kechinmalari va falsafiy qarashlarini ham ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. U o‘quvchining hissiy tajribasini boyitadi, tafakkurini faollashtiradi va san‘at orqali borliqni anglash imkonini yaratadi.

Shunday qilib, poetik matnda konseptual maydon tahlili orqali metafora va boshqa badiiy vositalarning funksional va gnoseologik ahamiyati ochiladi. Bu esa badiiy tafakkurni chuqurroq anglash, shuningdek, poetik nutqdagi obraz va ma'no uyg'unligini tushunishga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ager Deborah. Summer nights. <http://famouspoetsandpoems.com/poets/debora>
2. Kilday Faye Diane. Mother are a special gift. <https://www.poemhunter.com/>
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We live by. – Chicago: The University of Chicago Press, 2003. – 256 p.
4. Iqbol Mirzo. Seni bugun ko'rmasam bo'lmas. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018. – 284 b.
5. Jamol Kamol. Yonayotgan dala. Saylanma. Olti jildlik. II jild. She'rlar, g'azallar, muxammaslar, dostonlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 448 b.
6. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – B. 130.
7. Mirtojdiyev M. Lingvistik metaforalar tasnifi // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1973. №4. – B. 36-38.
8. Oripov A. Tanlangan asarlar: she'rlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2019. – 322 b.
9. Usmanov F.F. O'zbek tilidagi o'xshatishlarning lingvomadaniy tadqiqi. F.f.f.d. diss... avtoref. – Toshkent, 2020. – 57 b.
10. Vohidov E. O'zbekim: she'rlar, dostonlar, hajviyalar, muxammaslar, tarjimalar. – Toshkent: "Nurafshon business" nashriyoti, 2021. – 400 b.
11. Xasanova L. "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotida it obrazlarning tasvirlanishi tamoyillari // Scientific Progress, 2021. – 1098-1112 b.
12. Yuldashev A.G. Ko'chma ma'noli so'zlarda kognitiv mexanizmlarning o'rni // "O'zbekistonda xorijiy tillar" ilmiy-metodik elektron jurnal. № 3/2019. – B. 57-63.
13. Zulfiya. Yana bahor keldi sizni so'roqlab. – Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2018. – 128 b.
14. Микешина Л.А. Эпистемиологическое оправдание гипостазирования и реификации // Вопросы философии. 2020. [http://vphil.ru/index.php?option=com\\_content&task=view&id=236](http://vphil.ru/index.php?option=com_content&task=view&id=236)

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000